Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318233

materiallar to‘plami

TEXNIKA SOXASIDAGI KADRLARNI O‘QITISHDA MUSTAQIL TA’LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Xamdamov Nozimjon Nurdinbekovich Farg‘ona politexnika instituti
E39-22 EEE guruh talabasi Yunusaliyev Sanjarbek Yusupali o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika soxasidagi kadrlarni o‘qitishda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha muammolar va ularni echish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada texnika soxasidagi oliy o‘quv yurtlarida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha muammolar yoritilgan. Bundan tashqari talabalar internet resurslaridan foydalanish samaradorligini hamda samarali mustaqil ta'limni tashkil qilishda tashqi va ichki omillar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, kredit modul tizimi, kognitiv, individual ta’lim, modernizatsiya, samarali mustaqil ta'lim, kontseptual model, onlayn-resurslar, kompetensiya.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga moslasha oladigan, zarur bilimlarni mustaqil ravishda egallaydigan, turli muammolarni hal qilish uchun ularni amaliyotda mohirona qo‘llay oladigan mutaxassislar tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Bu vazifaga ta'lim sifatini hamda talabalar mustaqil ishlash tajribalarini oshirish bilan erishish mumkin.

Mustaqil ta’limni oqilona tashkil etish kredit modul tizimiga o‘tgan oliy ta’lim muassasalarining asosiy muammosi hal etilmayapti. Bu jarayonda ikkita sub'ekt: o‘qituvchi va talaba ishtirok etganligi sababli, har biri uchun faoliyat algoritmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ta’lim o‘rganishning ajralmas va muhim shaklidir. Uning maqsadi bo‘lajak mutaxassis amaliyotida yuzaga keladigan texnologik va ilmiy muammolarni mustaqil va ijodiy hal etishga qaratilgan asosiy kasbiy kompetensiyalar sifatida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. O‘qitishning maqsadi va vositalari, izlanish usullari va jarayonni samarali boshqarish yo‘llarining dolzarbligi esa talabaning mustaqil ishi tufayli nihoyatda yuqori bo‘ladi. Mustaqil ta’lim o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u erda ko‘nikma va bilimlar shakllanadi, bundan tashqari, u talabalarga kognitiv faoliyatning bilim va usullarini, ijodiy mehnatga qiziqishni va pirovard natijada texnik va ilmiy muammolarni hal qilish qobiliyatini beradi. Aynan mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning motivatsiyasi, qat'iyatliligi, o‘zini-o‘zi iroda etishi, o‘ziga ishonishi, o‘zini-o‘zi boshqarishi va boshqa shaxsiy xususiyatlarini namoyon qilish imkoniyati mavjud. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi yo‘qligida talabani universitetda o‘qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, talabalar nafaqat o‘qitiladigan fanlarning mazmunini, balki bilim olish yo‘llarini ham o‘zlashtira olishlari kerak.

Mustaqil ta'limning asosiy tarkibiy qismi o‘quv jarayoni uchun mas'uliyatni o‘qituvchidan talabaga o‘tkazishdir. Talabalar o‘zlarining o‘rganishlari haqida tushunchaga ega bo‘lishlari, o‘rganishga rag‘batlantirishlari va o‘quv muhitini tuzishda

Published: 10.11.2023

Cite this article: Xamdamov Nozimjon Nurdinbekovich, Yunusaliyev Sanjarbek Yusupali o‘g‘li (2023). Texnika soxasidagi kadrlarni o‘qitishda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318233

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

o‘qituvchilar bilan ishlashlari ko‘zda tutilgan. **Mustaqil ta'lim** - bu talabalarni faqat ishga jalb qilish emas; o‘qituvchilar mustaqil o‘rganishni targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy muammo - bu mustaqil ishlashni tashkil qilish zarurati. Ko‘pgina talabalarda tahlil qilish, qayd qilish, birlamchi manbalar bilan ishlash, ifodalash, vaqtni boshqarish, o‘zlarining aqliy va fiziologik xususiyatlarining individual xususiyatlarini hisobga olish, psixologik tayyorgarlikning deyarli to‘liq yo‘qligi, mustaqil ishlash, uni tashkil etishning umumiy qoidalari bilan tanishmaslik bilan bog‘liq katta qiyinchiliklar mavjud.

Ma’lumki, hozirgi kunda o‘rta osiyo oliy ta’lim muassasalari kredit modul tizimiga o‘tmoqda. Kredit modul tizimida fanlarga berilayotgan kreditlarning kamida 50-60 foizi mustaqil o‘quv soatlari bo‘lib, bu vaqt davomida talaba mustaqil ishlashi kerak. Kredit modul tizimiga o‘tgan har qanday oliy ta’lim muassasalarining eng katta muammolaridan biri mustaqil ta’limni tashkil etish va bajarilayotgan mustaqil ishlarning sifatini oshirishdir. Bundan tashqari talabalar mustaqil ishlashga o‘rgatilmaganligi, ularda motivatsiyani yo‘qligi, zarur o‘quv, ilmiy, o‘quv-uslubiy va ma'lumotnomalardan foydalanish ko‘nikmalari yo‘qligi sababli bu muammoni yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda. Afsuski mustaqil ta’limni mohiyatini ko‘plab talabalar yaxshi tushunmaydilar.

O‘qituvchining bevosita ishtirokisiz talaba o‘z faoliyatini tashkil qilishni, uni axborot va o‘quv muhiti nuqtai nazaridan tartibga solishni va nazorat qilishni o‘rganishi kerak. Talabalarning mustaqil ishi doirasida maxsus axborot va o‘quv internet resurslaridan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risida xabardorlik muammosi mavjud. Yana bir muammo - ta'limga oid onlayn resurslar va qiziqarli manbalar o‘rtasida tanlov qilish qiyinligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internetda kerakli resurslarni qanday tanlash usuli tartibsizdir. Qizig‘i shundaki, talabalar qidiruv tizimlarida so‘rov yuborib, ma'lumot manbasidan qat'i nazar, turli havolalarga o‘tishadi. Tekshirilmagan ma'lumotlar oldingi bo‘lib qoladi, shuning uchun mustaqil ishlarni bajarishda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi va natijada talabalar mustaqil ishlarida xatolar yuzaga keladi.

Talabalar uchun foydali ta'lim ma'lumotlarini qanday qidirish kerak? Bu holatda mustaqil ta’limni tashkil qilish masalasi eng muhimlaridan biridir. Talabalarning ta'lim onlayn-resurslari mavjudligi to‘g‘risida xabardorlik muammosini hal qilish orqali biz talabalarning kerakli materialni qidirishda "tartibsiz sargardonligi" dan qochishimiz mumkin, shuning uchun ishonchsiz va noto‘g‘ri manbalardan foydalanish kamayadi.

Bir tomondan, zamonaviy axborot va o‘quv muhiti sharoitida talabalar turli ta'lim onlayn resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalangan holda mustaqil ishlarni yanada sifatli bajarish imkoniyatiga ega bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, ular har qanday xususiyatdagi ma'lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Internetda ularning mustaqil ishlash darajasini ko‘tarish imkoniyati mavjud. Talabalarning bu boradagi bilimini oshirish, axborot va o‘quv muhiti

sharoitida ular o‘rtasida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun sharoit yaratish zarur.

Ma'lumki, texnika oliygohlarida mustaqil ta’lim turlicha tashkil qilinadi. Ushbu universitetlarning har birida talabalarga har xil turdagi individual ishlar beriladi. Shaxsiy ishni tanlash asosan o‘qitiladigan fanning xarakteri va maqsadlariga bog‘liq.

Texnika yo‘nalishda o‘qiyotgan talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning konseptual yondashuvi talabani passiv ta’lim ob’ektidan faol bilim sub’ektiga aylantirishni taqozo etadi. Shunday qilib, zamonaviy talaba ilmiy muammoni shakllantirish, uni hal qilish yo‘llarini topish, natija(larni) aniqlash va uning (ularning) asosliligini isbotlay olishi kerak. O‘quv jarayonida talabalarning mustaqilligini oshirish bilimlarni o‘zlashtirishda interfaol usullardan kengroq foydalanish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda individual ta’lim imkoniyatlarini oshiradi. O‘quv rejasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy o‘quv yurtlarida auditoriya mashg‘ulotlari soatlari asta-sekin kamayib bormoqda va shunga mos ravishda beriladigan nazariy bilimlar hajmi ham kamaymoqda. Bu erdagi asosiy maqsad talabalarning dars mashg‘ulotlarida ortiqcha yuklanishining oldini olish va ularning mustaqil bilim olishiga yordam berishdir.

Samarali mustaqil ta'lim bir qator tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Tashqi omillar qatoriga o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish, AKT muhim elementga aylanishi mumkin bo‘lgan “qulay muhit” yaratish kiradi. Ichki omillar - bu muayyan talabalar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar. Ular xotira va diqqatni jamlash va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarni, o‘rganish qanday sodir bo‘lishini tushunish bilan bog‘liq meta-kognitiv qobiliyatlarni, shuningdek, his-tuyg‘ular va hissiyotlar bilan bog‘liq affektiv qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Ba'zi tadqiqotlarning tafsilotlari shuni ko‘rsatdiki, Mustaqil ta'lim usullaridan foydalanish o‘qituvchilarga o‘z guruhlarida keng ko‘lamli faoliyatni tashkil qilish va talabalarning tashkiliy jihatlari va xatti-harakatlaridan ko‘ra o‘qitish va o‘rgatishga ko‘proq e'tibor berish imkonini berdi. Masalan, o‘qituvchilarga ma'lum guruhlar bilan ishlash imkonini berdi, boshqa guruhlar esa bir-biridan mustaqil ravishda ishlaydi. Ikkita tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rganishda mustaqil bo‘lgan talabalar boshqalarga qaraganda yuqori standartlarda ishlaydi, ishtiyoqi baland va o‘zini o‘zi qadrlaydi. Talabalarda o‘z fikr-mulohazalarini shakllantirish uchun o‘z g‘oyalaridan foydalanib, o‘z bilimlarini davom ettirishga yordam beradigan ko‘nikmalar shakllanadi; o‘rganishda turli strategiyalardan foydalangan holda muammolarni hal qiladi.

Samarali mustaqil ta'lim jarayonida o‘qituvchining roli, bilim beruvchi mutaxassis sifatida, talabalarga o‘rganish uchun zarur bo‘lgan strategiyalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan "murabbiy" roliga o‘tadi. Faoliyatning asosiy turi o‘qituvchining talabalarga o‘quv maqsadlari haqida o‘z g‘oyalarini yaratishga yordam berishdir.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish ularning mutaxasisligini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi

kerak. Shu bilan birga, mutaxasislik bo‘yicha ko‘nikmalar va amaliy bilimlar o‘zlashtiriladi, bu esa keyinchalik maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, texnika oliygohlarida mustaqil ishni sifatli tashkil qilishning asosiy vazifalari mutaxasislikning kommunikativ kompetensiyasining tegishli darajasiga erishish va bitiruvchilarni o‘qishni tugatgandan so‘ng mutaxsisligi bo‘yicha mustaqil ish olib borishga tayyorlashdir. Universitetda talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning kontseptual modelining o‘zagini o‘quv jarayonida talabalarning o‘quv mustaqil faoliyati imkoniyatlari, ularga mos keladigan qonuniyatlar va tamoyillar, shuningdek, optimal pedagogik sharoitlar to‘g‘risidagi g‘oyalar majmui tashkil etadi. Hozirgi vaqtda talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bo‘lsa-da, o‘quv jarayonini faollashtirishga, talabalarga mutaxasisligi bo‘yicha barcha imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi. Mustaqil ishlarni qo‘llash orqali bilimlarni o‘tkazishga tayyor texnologiyasi talabalarning bilimlarni mustaqil egallashiga imkon beruvchi texnologiya bilan almashtiriladi. O‘quv jarayonida talabalarning mustaqilligini oshirish bilimlarni o‘zlashtirishda interfaol usullardan kengroq foydalanish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda individual ta’lim imkoniyatlarini oshiradi. Shunday qilib, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida olimlar mutaxassisni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan turli xil texnikalarni taklif qilmoqdalar. Ushbu usullarning ko‘pligi va ba'zan nomuvofiqligiga qaramay, ularning aksariyati bir narsada o‘xshashdir - talabaning mustaqil ishi asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish vositasi bo‘lib, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funktsiyaga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shaxodjaev M.A. Yoshlarni axloqiy-xuquqiy, ta’lim-tarbiyasida Burxoniddin Marg‘inoniy merosidan foydalanish (uslubiy qo‘llanma) Toshkent “Ezgulik manbai” nashriyoti 2006 yil
2. Shaxodjaev M. A. Self-education and methods of its organization in the technical branches of education //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – T. 2. – №. 6. – S. 426-432.
3. M.A. Shakhodjaev, N.Khamdamov “Modern teaching methods using didaktig aids (on the example of practical and laboratory classes” ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10, Issue 10, October 2020. P.1229-32.
4. M.A. Shakhodjaev M.A. Involvement of students in research work. Tashkent State Pedagogical University. Scientific Information. Scientific-theoretical Journal № 3. 2020. P.112-115.
5. Orunboyeva U. S. STRUCTURING OF TEACHING AND LEARNING ACTIVITIES //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – S. 380-383.

6. Hamdamov Nozimjon Nurdinbekovich. (2023). Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish orqali texnologiya sohasida kadrlar sifatini oshirish. Pedagogik ixtirolar va amaliyotlar jurnali , 21 , 62-65. https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/4187 dan olindi
7. Sharabidinovna O. U. Development of Independent Activity of Students in Teaching English as A Specialty //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 50-55.
8. Sharabidinovna O. U. Organizing Students' Independent Work In Teaching Foreign Languages //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 21. – S. 130-134.
9. Nurdinbekovich K. N. Improving the Quality of Personnel in the Field of Technology Through the Effective Organization of Independent Education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 21. – S. 62-65.